XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA VILOYATI DANG‘ARA TUMAN KENGASHI QARORI

2024 - yil 1 - fevral VI-86-21-11-155-K/24 Dang‘ara tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi 295-sonli qarori ijrosi doirasida Dang‘ara tumani hududidagi ziyoratgoh va qabristonlar nomini davlat reestriga kiritish to‘g‘risida

Dang‘ara tumani hududida 2023-yilning dekabr oyigacha jami 9 ta ziyoratgoh hamda 74 ta qabriston borligi to‘g‘risida ma’lumot berib kelingan, lekin Dang‘ara tumanida 8 ta ziyoratgoh 72 ta qabristonlar mavjud bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son qaroriga ilova qilingan Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha hududiy komissiyalar to‘g‘risidagi Namunaviy nizomga asosan o‘tkazilgan hatlov davomida tumandagi 8 ta ziyoratgoh va 72 ta qabristonlar nomlari davlat reestriga kiritilmaganligi aniqlangan.

Yuqoridagilarga ko‘ra, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash tuman komissiyasiga iltimosnomalar kiritilganligi hamda tuman komissiyasi tomonidan olib borilgan hatlov natijalarini inobatga olib, 2024-yil 16-yanvardagi Geografik ob’ektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komisiyasining yig‘ilish bayoni, «Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Dang‘ara tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi N.Umarovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi N.Umarovning tumandagi ziyoratgoh va qabristonlar nomlarini o‘zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirib, davlat reestriga

kiritish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

3. Dang‘ara tuman hududidagi davlat reestriga kiritilayotgan ziyoratgoh va qabristonlar nomlari 1-2-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

4. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan o‘z faoliyatini amalga oshirayotganda geografik obyektlarning ro‘yxatidan o‘tkazilgan nomlaridan foydalanishi belgilansin.

5. Tuman hokimining Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (N.Umarov)ga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabr kunidagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi 295-sonli qarori ijrosi doirasida tuman hududidagi ziyoratgoh va qabristonlarni Davlat reestriga kiritish bo‘yicha qonunchilik talablariga asosan takliflarini tayyorlab belgilangan tartibda viloyat komissiyasiga kiritsin.

6. Tuman statistika bo‘limi (T.Kimsanov), O‘zbekiston Respublikasi Kadastr agentligining davlat kadastrlari palatasi Farg‘ona viloyat boshqarmasi Dang‘ara tuman filiali (M.Isambayev)larga tumandagi reestrga kiritilmagan ziyoratgoh va qabristonlar nomlarini belgilangan tartibda ro‘yxatga olish va reestrga kiritish bo‘yicha viloyat komissiyasiga malumotlarni taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

7. Mazkur qaror “Dang‘ara” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

8. Mazkur qarori ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Doimiy komissiyalari hamda tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i I.Usmonovlar zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Sh.Tojixakimov**

Xalq deputatlari Dang‘ara tuman Kengashining
2024-yil 1-fevraldagi
VI-86-21-11-155-K/24-son qaroriga
1-ilova

Dang’ara tuman hududidagi davlat reestriga kiritilayotgan qabristonlar nomlari

t/r	Nomlanishi	Manzili	Tarixi
1	**Dang‘ara** qabristoni	Navbahor MFY	VII-VIII asrlarda Navbahor MFY hududidagi Toshmozor qabristonidan tuproq olib kelinib, Dang’ara markaziy qabristoni barpo etilgan. Xonlik davrida don yetishtirilib yig‘ilganda doni qora ekanligi e`tirof etilgan. Shundan Dang’ara nomi kelib chiqib qabriston nomi shundek atala boshlangan.
2	**Toshmozorbuva** qabristoni	Navbahor MFY	Xo‘ja Turop buvaning ukalari hisoblanib, Toshnazar Alayhi Rahmat bo‘lgan va hozirgi Toshmozor qabristoni hududida g‘oyib bo‘lgan. Hozirgi kunda maqbara o‘rnatilgan. Shu sababli qabriston Toshmozor buva nomi bilan yuritilib kelinadi.
3	**Pishqaron** qabristoni	Pishqaron MFY	Pishqaron qabristoni avval Peshqo‘rg‘on, ya’ni hududdan shaharga kiradigan darvoza bo‘lganligi va xalq tilida o‘zgarib Pishqaron tariqasida atala boshlangan. Shu tariqa qabriston nomi Pishqaron qabristoni deb atala boshlangan.
4	**Nurafshon** qabristoni	Qiyali MFY	Dang’ara tumanidagi Nurafshon qishlog‘i avval Qoraqalpoq deb nomlangan. 1996-1997-yillarda qishloq Nurafshon deb o‘zgartirildi. Bunga sabab Sirdaryo sovxozida ham Qoraqalpoq qishlog‘i bo‘lgan va ko‘p hujjatlarda fuqarolar uchun chalkashlik va qiyinchiliklar keltirib chiqargani bo‘lgan. Nurafshon deb nomlanishiga sabab bu yerda elektr stansiyasining borligidir. Nurafshon so‘zining ma’nosi fors-tojik tilidan “nur sohibi” “go‘zal” degan ma’nolarni anglatadi.
5	**G‘oyib Eranbuva** qabristoni	Tangriqul MFY	XIX asr oxiri XX asr boshlarida mazkur hudud Naymanchaning Qadimiy qishlog‘i bo‘lmish Tangriqulda qadimiy qabriston mavjud bo‘lib, bu go‘shada xalq orasida G‘oyiberan bobo nomi bilan mashhur avliyoning tabarruk ravzalari bor. Tarixiy manbalardan ma’lum bo‘lishicha u zotning haqiqiy nomlari Xoja Ruhiddin Eranbinni Xoja Ruhiddin Ali Shayxdir. Nom tarkibidagi Eran atamasining tom ma’nosi “Erkishi, mard degan ma’noni” anglatsada Xoji Ruhiddin mansub bo‘lgan Yassaviyga sulukida tasavvufning barcha bosqichlaridan ko‘tarilib, valiylik darajasida erishgan shayxlar Eran deb atalgan. Manbalarda yozilishida Xoji Ruhiddinning tavallud sanasi taxminan XVII asrning 1 choragida tavallud topganlar.

6	**Minglar** qabristoni	Minglar MFY	Minglar 92 o‘zbek urug‘ning eng yirik qabilalaridan biri bo‘lgan qabila 3 guruhga bo‘lingan. Tarixda bu 3 guruh bugungi Targ‘ova, Teliming va Minglar qishlog‘ida joylashgan. Minglar qishlog‘i nomi ham qabila nomidan kelib chiqqan. Shu sababdan qabriston ham Minglar qabristoni deb atala boshlagan.
7	**Aravon** qabristoni	Katta aravon MFY	Aravon qishlog‘i qadimda arablarning ushbu hududga joylashishi tufayli shakllangan, qabriston nomi ham qishloq nomidan kelib chiqqan. Aravon - “Arab on” yani arablar degan manoni anglatadi.
8	**Chomochbek** qabristoni	Qashqar MFY	Rivoyatlarga ko‘ra bu yerga Mirzo Boburning Oltin Beshikxon ismli farzandining oltinchi avlodi, XVII asrda yashab o‘tgan Tangriyorbiy – Shoxmastbiy, ya’ni Chomochbiy dafn qilingan. U mavlono Lutfullo Chustiyning shogirdi bo‘lib, tasavvuf ilmida benazir yedi. Uning kuchli yodi tufayli unga “Shohmastbiy” (uning maxsus formasi Chomochbiy) oliy maqom berilgan. U vafot yetgach uning qabri ziyoratgoxga aylandi. Qo‘qon honlari unga atab maqbara qurishgan va katta ye’tiqod bilan qarashgan. Buning uchun bu qo‘rg‘oncha va mozor Chomochbiy deb aytiladigan bo‘lgan. Vaqtlar o‘tishi bilan qo‘rg‘oncha qishloqqa, mozor yesa ziyoratgoxga aylangan.
9	**Qashqar** qabristoni	Qashqar MFY	1805-yil Qashqar qishlog‘i tashkil topadi. Qishloq aholisi sharqi turkistondan ko‘chirib keltirilgan uyg‘urlar bo‘lgan qishloqqa sharqiy Turkistondgi mashhur shaxar nomi “Qoshg‘ar”nomi beriladi, keyinchalik maxalliy shevada Qashqar deb atala boshlanadi. Qabristonga qishloq nomi berilgan. Shu qishloq aholisi va qolgan qishloqlardan vasiyat bo‘yicha mayitlar dafn etiladi.
10	**Barzangi** qabristoni	Naymancha MFY	Qishloq tarixini Amir Temur hukmronlik yillariga bog‘lashadi. Amirning Hindiston yurishidan qaytishda “Barzangi” qabilasini olib kelgani aytiladi. Ushbu qabila shu huddudga joylashtiriladi. Ushbu qabila nomidan qishloq nomi kelib chiqqan. Qishloq qabristoni ham shu nom bilan ataladi.
11	**Qo’shko’prik** qabristoni	Boy-bo‘ta MFY	Daryo oralig‘ida joylashgan qishloq bo‘lgan. Qishloqni ikki sohil bilan bog‘lash uchun ikki ko‘prik barpo etiladi. Shu sabab qishloq nomi Qo‘shko‘prik deb ataladi. Qishloq nomidan qabriston nomi kelib chiqqan. Boy-bo‘ta MFY Qo‘shko‘prik qishlog‘ida qadimgi qabriston “Yilg‘indi” deb nomlangan. Hozirgi “Buzruk buva” qabristoni 1959-yilda ochilgan. To‘rtta qishloq aholisi shu yerga dafn qilinadi.

12	**Xo‘jamozor** qabristoni	Qum qiyali MFY	XIV-XV asrlar davrida Xo‘ja aziz buva Amir Temur davrida, taxminan hozirgi Dang’ara tumani Qum qiyali MFY hududida yashab o‘tgan uni xalq Xizirga tenglashtirgan. Rivoyatlarga ko‘ra Amir Temur bu inson haqida eshitib agar shu inson haqiqatdan Xizir bo‘lsa uning oldiga kelganimda, U qo‘lida issiq xolvalar bilan kutib oladi degan ekan, xaqiqatdan xam Soxibqironning jangdan qaytishida Xo‘ja aziz buva qo‘lida yangi pishirilgan xolva bilan xukmdorni kutib olgan ekan. Xo‘ja aziz buva vafotidan so‘ng uning qabri ustiga maqbara qurilgan va mustaqillik davrida qayta tiklangan, xozirgi kunda xo‘jamozor deb atalib kelinmoqda.
13	**Oltio‘rtoq** qabristoni	Qiyali MFY	XVIII asrlarda Qo‘qon xoni Umarxon hududlarini aylanib yurishi davomida hozirgi Oltio‘rtoq qishlog‘i hududida ko‘llar ko‘p bo‘lib, ko‘lning har tomonida oltita oila qo‘shni bo‘lib emas, tarqoq holda yashayotganini ko‘rib ularni bitta joyda qo‘ni- qo‘shni bo‘lib yashash kerakligini aytgan. Shu tariqa qishoqning nomi Oltio‘rtoq nomi bilan yuritib kelingan. Keyinchalik aholi soni ko‘paygandan so‘ng qabriston uchun joy ajratilgan va shu qishloq nomi bilan yuritib kelingan, ya`ni, Oltio‘rtoq qabristoni deb atalgan.
14	**Tumor** qabristoni	Tumor MFY	Qishloq nomi urug‘ nomidan olingan. Qadimda har bir urug‘ o‘z tangasiga ega bo‘lgan. Tangaga turli buyumlar, xayvonlar, o‘simliklar, tabiyat hodisalari suratlari tushirilgan. Bir o‘zbek urug‘i tamg‘asi esa tumor shaklida bo‘lgan, shu tufayli urug‘ nomi tumor urug‘ deb atalgan. Qishloq nomi shu urug‘ nomidan kelib chiqqan. Qabriston nomi ham shu qishloq nomidan kelib chiqqan.
15	**Sanam** qabristoni	Sanam MFY	XVII asrlarda o‘sha hududda parilar yovlar tomonidan quvib kelingan paytda hozirgi Sanam qabristoni hududida g‘oyib bo‘lishgan va qabriston Sanam nomi bilan atalgan. 2017-yili Sanam alohida MFY bo‘lib ajrab chiqqan.
16	**Taypoq** qabristoni	Taypoq MFY	Taypoq qishlog‘i aholisi shu qabristonga dafn etilgani uchun “Taypoq qishloq” qabristoni deb nomlangan.
17	**Sho‘rqishloq** qabristoni	Uymovit MFY	Sho‘rqishloq qabristoni 1934-1935-yillarda tashkil etilgan. Nomlanishi Uymovut MFY hududidagi samarasiz maydonlar, aynan sho‘r yerlar qabriston hududini tashkil etganligiga MFY hududidagi aholi yashaydigan joyga Sho‘rqishloq nomi berilib, qabriston ham shu qishloq nomi bilan yuritib kelingan.
18	**Devonabuva** qabristoni	Istiqlol MFY	Qadimdan bu joyda Devona buva ismli avliyo odam yashagan ekan. U odam hatto o‘zining ham qachon vafot etishini bilib, bir kun oldin o‘zining taziyasiga odamlarni aytgan ekan. Qabriston shu avliyo inson nomiga qo‘yilgan ekan.

19	**Mulla Ohunbuva** qabristoni	Istiqlol MFY	Qadimdan o‘tmishda qiyinchilik, qahatchilik yillarida Xo‘ja qishloqqa Andijon tomonlardan Oxun buva ismli odam kelib qolgan ekan. Insofli va diyonatli, ilmli inson bo‘lgan ekan. O‘qimishli bo‘lganligi sababli odamlar uning ismiga “mulla” so‘zini qo‘shib, Mulla Oxun buva deb atagan ekanlar. Bu odam shu yerda vafot etgan. U odam ko‘milgan joy keyinchalik qabriston bo‘lgan ekan.
20	**Olaxamak** qabristoni	Uymovut MFY	Ushbu qabristonga Olahamak qishlog‘i aholisi dafn etilgani sababli Olahamak qabristoni deb ataladi. Qishloq nomi esa aholi tarixdan ushbu hududda qovun yetishtirish bilan shug‘ullanganligi sabab bo‘lgan.
21	**Xo‘ja Turobbuva** qabristoni	Doimobod MFY	Qadimdan bu joyda 4 nafar aka uka yashab o‘tgan, Bular Xo‘ja Turob buva, Xo‘ja Aziz buva, Sho‘rob to‘ra buva va singlisi Qizlarxon bo‘lgan. Sho‘r tupa qabristonining kelib chiqishi aslida to‘ng‘ich farzand bo‘lmish Xo‘ja Turob buva chiqib ketib qaytib kelmagan, Doimobod MFY hududida g‘oyib bo‘lgan va shu yer qabristoni nomiga Xo‘ja Turob buva nomi berilgan, Aziz joylar bo‘lganligi uchun asoslanib qo‘yilgan.
22	**Ernazarbuva** qabristoni	Taptiqsaroy MFY	Rivoyatlarga ko‘ra 7 avliyosifat aka-uka bo’lishgan. Ernazar buva shulardan biri bo‘lib shu yerda g‘oyib bo‘lgan yoki shu yerga dafn etilgan.
23	**Oxunbuva** qabristoni	Taptiqsaroy MFY	Rivoyatlarga ko‘ra 7 avliyosifat aka-uka bo’lishgan. Oxunbuva ham shulardan biri bo‘lib, shu yerda g‘oyib bo‘lgan yoki shu yerga dafn etilgan.
24	**Qizbuvi** qabristoni	Oqjar MFY	Qadimdan bu joyda 4 nafar aka-uka yashab o‘tgan, Bular Xo‘ja Turob buva, Xo‘ja Aziz buva, Sho‘rob to‘ra buva, va singlisi Qizlarxon bo‘lgan. Qizbuvi qabristonining kelib chiqishi aslida to‘ng‘ich farzand bo‘lmish Xo‘ja Turob buva xamda Sho‘rob to‘ra buva chiqib ketib qaytib kelmagan, shu sababli Qizlarxon Oqjar MFY hududida g‘oyib bo‘lgan va shu yer qabristoni nomiga Qizbuvi nomi berilgan, Ilgari Yaltir qishlog‘i yoshu-qarilari qabristonga qo‘yilgan xozirgi kunda qabristonga yosh bolalar qo‘yiladi.
25	**Imom Baqir** qabristoni	Oqjar MFY	Oqjar nomi joyning tabiiy hususiyatlaridan olingan bo‘lib “Oq” so‘zi qadimgi turkiy tillarda “O‘simlik o‘sadigan o‘t bilan bilan qoplangan joy” jar esa tabiiy o‘yiq bo‘lib, bahor paytidagi mo‘l yog‘in suvlari yuqoridan quyiga intilgan va daryoga qo‘shilib ketgan joy bo‘lgani uchun Oqjar nomi berilgan. Xo‘ja Abu Turob buvaning avlodidan bo‘lgan XVII-XVIII asrlarda Imom Baqir Oqjar qishlog‘idagi qabristonga dafn etilgan va qabriston Imom baqir nomi bilan yuritib kelingan.

26	**Chinachaq** qabristoni	Abdusamad MFY	Chinachaq qabristoni Abdusamad qishlog‘ida joylashgan. Abdusamad qishlog‘i kattaligi sababli dahalarga bo‘lingan, ushbu dahalardan biri Chinachaqdir va uni ham bemalol qishloqqa tenglashtirish mumkin. Shu sababli Chinachaqning alohida qabristoni vujudga kelgan.
27	**Quruqtolbuva** qabristoni	Kichik Turk MFY	Quruqtol buva qabristoni Kichik turik MFY hududidagi Chag‘ali qishlog‘da joylashgan bo‘lib XVII-XVIII - asrlarda tashkil etilgan. Quruqtol buva deb yuritilishiga sabab. U avliyo zot hisoblangan bo‘lib farzandi bo‘lmagan va vafotidan keyin shu qabristonga dafn etilgan. Qabriston nomi Quruqtol buva qabristoni deb atalib kelingan.
28	**Qirg‘izovul** qabristoni	Yashik MFY	XVIII asrda Qo’qon xoni Umarhon qirg‘iziston tomondan yurish qilib kirib kelishda Yashik MFY hududidagi nomsiz qabriston atrofida lashkarlar ovul tikib ma`lum vaqt yashagan, o‘sha vaqtdan beri qabriston qirg‘z ovul qabristoni deb yuritib kelinadi.
29	**Yashik** qabristoni	Yashik MFY	Yashik so‘zi qadimgi turkiy tildagi “Yoshuq” so‘zining bugungi shevada o‘zgargan shakli bo‘llishi mumkin. Yoshuq so‘zi “Qutadg‘u bilik” asarida quyosh degan ma’noni anglatishi haqida yozilgan. Yashik qishloq qabristoni Yashik MFYga qarashli Yashik qishlog‘ida joylashgan bo‘lib insonlar doimiy obodonlashtirish va bir-biriga faqat yaxshiliklar va yordam ko‘rsatib ahil hayot kechirganliklari uchun ilgari obod qishloq maskanini bildirib yaxshilik nomi bilan yuritilgan. Keyinchalik Yashik deb atalgan shu bois qabristonning nomi ham 1952-yildan boshlab Yashik deb yuritilgan ma’lumotlarga ko‘ra Namangan viloyati Norin tumanida, Dog‘istonda ham Yashik qishlog‘i mavjud.
30	**Qiyali Qo‘rg‘oncha** qabristoni	Qiyali-qo‘rg‘oncha MFY	Ushbu qabriston nomi Qiyali-qo‘rg‘oncha qishlog‘i nomidan kelib chiqqan. Bunga sabab qabristonga shu qishloq aholisi dafn etiladi.
31	**Chankat** qabristoni	Qiyali-qo‘rg‘oncha MFY	Qiyali-qo‘rg‘oncha MFY hududida Chankat qishlogida ikkita qabriston bo’lib bittasi Temirchi buva nomi bilan ikkinchisi esa o’sha qishloqni alohida yo’l ajratib turganligi ajratgan qismdagi insonlar dafn etilganligi sababli Chankat qabristoni nomi bilan 1963-yildan buyon yuritib kelingan.
32	**Mitan** qabristoni	Bo‘riqum MFY	Mitan qishloq qabristoni qabristoni Mitan deyilishiga sabab 53-yildan buyon Mitan deb kelinadi. Bundan ilgari bu qishloqda Mingdan ortiq insonlar yashab o‘tishgan shu sababdan Mitan nomi berilgan. Shuningdek Buxorodagi yirik Mitan qabilasining o‘tmishda ushbu hududga kelib joylashishi tufayli Mitan qishlog‘i shakillangan bo‘lishi mumkun. Qabriston nomi qishloq nomidan kelib chiqqan.

33	**Chillamozor** qabristoni	Bo‘riqum MFY	Chilla mozori chillali insonlar, chillali go’daklar dafin etilgani uchun “Chilla mozor” deb atalib kelingan.
34	**Qoramulla** qabristoni	Qora mulla MFY	Qoramulla qabristoni 730-800-yillar o‘rtasida arablar istilosi paytida podshoh Jarurni davriga kelib shu qishloqdan bir bolani o‘zi bilan olib ketadi va bu bola Jarur podshoxning o‘g‘li Muhammadjarur podshoxpirim bilan birga katta bo‘ladi. Shu davrda bola diniy ilmni mukammal egallaydi. Jarur podshoxning o‘tmishidan keyin onasi Bibixuvayda bilan Muxamadjarur Podshoxpirim Arabistonga ketadi shundan keyin bola qishloqqa qaytib keladi. Bola o‘sha vaqtda 16-18 yoshlarda bo‘lgan. U to‘liq ilmga ega bo‘lganligi sababli qishloqqa imomlik qiladi. Odamlar uni qori aka deb ataydi. Odamlar shundan keyin qishloqni qori aka qishlog‘i deb atay boshlaydi. Qori aka so‘zi keyinchalik odamlar talaffuziga asosan hozirgacha Qoramulla qabristoni deb atalib kelmoqda.
35	**Ovulchivit** qabristoni	Qora mulla MFY	Ovul qishlog‘i avvalgi nomi Qurama Ovul bo‘lib qishloq qum uyumlaridan iborat bo‘lib ko‘chmanchi qabilalardan birlari quramalar kelib dehqonchilik hamda chorvachilik bilan shyg‘ullanishgan. Keyinchalik esa ko‘payib o‘sish hisobiga yangi avlodlar paydo bo‘lib “Qurama ovul” nomi bilan qishloq paydo bo‘lgan atrofdagi qum uyumlarini yangi yerlarni o‘zlashtirish hisobiga ekin maydonlariga aylantirilgan keyinchalik halq tilida qurama ovul ovulchivit qabristoni deb atala boshlangan.
36	**Kichik Boybucha** qabristoni	Kichik boybucha MFY	Qishloq nomi o‘tmishda yashagan aka-uka boyvachchalar nomidan kelib chiqqan. Yani ular ikkisi nomiga atalgan katta va kichik boybuchcha qishloqlari mavjud kichiq boybuchcha qishlog‘i qabristoni aynan qishloq nomidan olingan.
37	**Katta Boybucha** qabristoni	Katta boybucha MFY	Mulkobod MFY Katta boybucha qishlog’ida joylashgan Katta boybucha qabristoni bir boy ayol nomiga qo’yilgan. Bu nom qo’yilishidan maqsad u yerda bir boy ayol yashab o’tgan bu ayol qishloqga suv olib kelib qurg’oqchilikka barham bergan shu sababdan odamlar Katta boybucha nomi bilan atay boshlagan.
38	**Katta Qo’rg‘oncha** qabristoni	Katta boybucha MFY	Katta qo‘rg‘oncha qabristoni shu nomli qishloq nomidan olingan. Qishloq o‘rnida qadimda katta bo‘lmagan qo‘rg‘on mavjud bo‘lgan va keyinchalik qishloq shakillanib borishi natijasida qishloq nomi kichik qo‘rg‘oncha deb atal boshlangan. Qabristonga ham asosan qishloq aholisi dafn etilgani tufayli katta qo‘rg‘oncha deb atal boshlangan.

39	**Urganji** qabristoni	Urganji MFY	Urganji qishlog‘i nomini kelib chiqishi tarixi Xorazimdagi Urganj shahriga bog‘lanadi,Qadim o‘tmishda qishloqga Urganjdan aholi ko‘chib kelgan va barpo etilgan qishloqga urganch nomi berilgan,ushbu qishloq aholisini atrofdagi boshqa qishloq aholisi Urganjilar yani Urganjliklar deb atashgan vaqt o‘tishi bilan qishloq nomi o‘zgarib borib Urganji deb atala boshglagan.Qabriston nomi qishloq nomidan kelib chiqqan.
40	**Qizilmusht** qabristoni	Qizilmusht MFY	O‘zbeklarning 92 qabilasidan biri “qizilmusht” nomi bilan atalgan,Qizil must bugungi o‘zbek tilida qizil sichqon degan ma’noni bildiradi. Musht-sichqon degan manoni bildiradi. Qishloq nomi qabila nomidan kelib chiqqan. Qishloq qabristoniga shu qishloq aholisi dafn etilgani sababli qabriston ham qizilmusht deb nomlanadi.
41	**Tegirmonboshi** qabristoni	Qizilmusht MFY	Ushbu qishloq Qirqlar qishlog‘i chetida tashkil topgan va keyinchalik aholi sonining o‘sib borishi tufayli alohida qishloq maqomiga ega bo‘lgan. Qishloqning bundek nomlanishiga sabab Qirqlar qishlog‘ining tugash qismida tegirmon joylashgan va bu tegirmondan yangi qishloq “tegirmonboshi” boshlangan.
42	**Qirqlar** qabristoni	Shodlik MFY	Qirqlar qishlog‘i nomi qabila nomidan kelib chiqqan. Bugungi qishloq hududiga Qirqlar qabilasining joylashishi tufayli qishloq tashkil topgan. Qabriston ham qishloq ahli dafn etilgani sababli qirlar deb nomlanadi.
43	**Kichik Amirobod** qabristoni	Katta amirobod MFY	Amirobod qishlog‘i-amir obod qilgan joy bo‘lib qishloq 1618-yil, kichik, nomsiz bir qo‘rg‘oncha bo‘lib Ashtarxoniylar davlatining qo‘l ostida bo‘lgan Farg‘ona ulusi amiri Tangriyorxon Sulton bu yerga yozlik saroy qurdirgan va qishloqga asos solgan.Shundan beri qishloq kengayib Amirobod deb ataladigan bo‘lgan.Eski davrlarda bu joy kichik bir qo‘g‘oncha bo‘lganligi sababli joy nomiga atab odamlar kichik Amirobod qabristoni deb atashgan
44	**Sohil** qabristoni	Shodlik MFY	1986-1987-yillarda Sohil qishlog‘idan Katta soy o‘tgan bo‘lib qabristonga joy 1986-yilda shu soy bo‘idan joy ajratilgan 1987-yildan boshlab Sohil qishlog‘ida fafot etgan fuqorolar shu qabristonga qo‘yila boshlagan qabriston o‘sha yildan beri soxil nimo bilan yuritib kelingan bugungi kunda Sohil qishlog‘i nomi o‘zgartirilgan bo‘lib Yangi Obod nimi bilan yuritiladi

45	**Katta Amirobod** qabristoni	Katta amirobod MFY	Amirobod qishlog‘i –amir obod qilgan joy bo‘lib qishloq 1618-yil, kichik, nomsiz bir qo‘rg‘oncha bo‘lib Ashtarxoniylar davlatining qo‘l ostida bo‘lgan Farg‘ona ulusi amiri Tangriyorxon Sulton bu yerga yozlik saroy qurdirgan va qishloqga asos solgan.Shundan beri qishloq kengayib Amirobod deb ataladigan bo‘lgan.Vaqt o‘tib qishloq kengayib ikkiga ajralgan bu qishloqlar katta Amirobod va kichik Amirobod deb nomlangan katta Amirobod qabristoni qshloq aholisi tomonidan qishloq nomiga atab katta Amirobod qabristoni deb atalib kelingan va hozirgi yillargacha shu nom bilan atalib kelinmoqda.
46	**Ulug‘mozor** qabristoni	G‘umayli MFY	Ulug‘mozor qabristoni 1972-yilda tashkil etilgan. 1972-yilga qadar G‘umayli MFY aholisi Qo‘qon shahridagi Sarmazor qabristoniga dafn etilgan. Aholi soni ko‘payib ketganligi sababli 1972-yilda G‘umayli qishlog‘iga joy ajratib berilgan va shu yili Ulug‘oy ona ismli ayol vafot etib qabristonga birinchi bo‘lib dafn etilganligi sababli mozorning nomi “ulug‘mozor” qabristoni deb nomlangan.
47	**Oltiqush** qabristoni	Olti qush MFY	Ushbu qabristonning bunday nomlanishiga sabab qabristonga asosan Oltiqush qishlog‘i aholisining dafn etilishidir. Oltiqush qishlog‘ining nomlanishiga bir necha tahminlar mavjud ulardan biri bu hududda qadimda ko‘chmanchilar 6 ta “qo‘sh” yani chodir tikib ma’lum muddat yashaganliklari so‘ngra doimiy istiqomat qila boshlaganliklari sabab bo‘lgan. Keyinchalik “olti qo‘sh” so‘zi olti qushga aylanadi
48	**Bo‘stonliq** qabristoni	Shodlik MFY	1880-1890-yillarda aholi birgalikda tashkil etganligi va hamjihatlikda ish olib borganligi sababli qabriston birlashgan nomi bilan yuritilgan. 1930-yilda yangi sherali nomi bilan, 1950-yildan 1993-yilgacha yangi qishloq nomi bilan, 1993-yildan hozirgacha hududdagi aholi tomonidan qabriston atrof hududida obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish va tartibga keltirish ishlari amalga oshirilganligi sababli Bo‘stonliq nomi bilan yuritilib kelinmoqda.
49	**Sho‘rtepa** qabristoni	Chinobod MFY	Qadimdan bu joyda 4 nafar aka uka yashab o‘tgan, Bular Xo‘ja Turob buva, Xo‘ja Aziz buva, Sho‘rob to‘ra buva, va singlisi Qizlarxon bo‘lgan. Sho‘r tupa qabristonining kelib chiqishi aslida 3 farzand o‘lmish Sho‘rob tura beva chiqib ketib qaytib kelmagan, Chinobod mfy xududida g‘oyib bo‘lgan va shu yer qabristoni nomiga Sho‘rtepa nomi berilgan, Aziz joylar bo‘lganligi uchun ushbu nom berilgan.
50	**Qorako‘rpa** qabristoni	Qora ko‘rpa MFY	“Abdurahmon sahoba” dinga da’vat qiluvchi inson bo‘lgani aytiladi. Payg‘ambarimiz sahobasi. Qora-ko‘rpa qabristoni. Bugungi kunda Qorako‘rpa qabristoni deb ataladi.

51	**Mang’it** qabristoni	Mang‘it MFY	Mang‘it qabristoni nomi shu nom bilan ataladigan qishlog‘nomidan kelib chiqqan. Mang‘it yirik o‘zbek urug‘laridan biridir bugingi mang‘it qishlog‘i axolisi aynan mang‘it urug‘idan kelib chiqan bo‘libishi extimoli mavjud.
52	**Salomqishloq** qabristoni	Sanam MFY	Qishloqning to’liq nomi “Chek Abdusalom” Chek-hukmdor tomonidan harbiylarga mansabdorlarga xon oila a’zolariga va sodiq kishilarga bir umr foydalanishga berilgan qishloq shakllanishiga Qo’qon xonlari sodiq xizmatchisi Abdusalom Sarkor sababchi bo’lgan Abdusalom Sarkor o’ziga berilgan chek yer qishloq barpo ettiradi shu sabab qishloq Chek Abdusalom nomi bilan atay boshlangan. Keyinchalik shevada Salomqishloq tarzda yuritila boshlangan. Qabriston nomi ham qishloq nomidan kelib chiqqan.
53	**Soyshildir** qabristoni	Soy-shildir MFY	Qishloq nomi hududning tabiiy joylashuvidan kelib chiqqan “shil” turkiy tilda yopishqoq, qovushqoq degan manolarni anglatadi. “dir” esa jism jins ma’nolarini anglatadi. Bundan kelib chiqadiki shildir jinsdir. Shildir jinsi mavjud tuproqlar hosildor hisoblangan, shu sabab bu hududda qishloq tashkil topgan hududdan soy oqib o‘tishi sabab qishloq nomi “Soy shildir” deb atala boshlangan.Qabriston nomi qishloq nomidan kelib chiqqan.
54	**Gulboy** qabristoni	Sanam MFY	XVIII asrlarda Sanam MFY hududida Gili boy unimdor ser unim tuproq manosini bildirgan keyinchalik Gul boy nomi bilan atalib kelingan hudutda shu yurtning boy badavlat insonlaridan hisoblangan Imom ota yashab o‘tgan va shu qabristonga dafn etilgan shu sababli qbriston nomi Gulboy qabristoni deb atalgan.
55	**Ko‘nchiboy Qo‘rg‘oncha** qabristoni	Sanam MFY	Ko‘nchiboy qo‘rg‘oncha qabristoni shu nomli qishloq nomidan olingan. ko‘nchiboy qo‘rg‘oncha deb atal boshlangan. Qabristonga ham asosan qishloq aholisi dafn etilgani tufayli katta qo‘rg‘oncha deb atal boshlangan.
56	**Shopo‘lat** qabristoni	Shopo‘lat MFY	Shopo‘lat qabristoni Shopo‘lat MFY hududida joylashgan bo‘lib qabriston nomining kelib chiqishining sababi 1873-1876-yillarda shohpo‘lat ismli qo‘zg‘olonchi nomi bilan bog‘liq. Shohpo‘lat so‘zi avloddan-avlodga o‘tish davrida “shopo‘lat” shaklida yetib kelgan. Qabriston hozirda Sopo‘lat nomi bilan ataladi.
57	**Qumqishloq** qabristoni	Aravon MFY	Katta aravon MFY da qabriston 2010-yilda ochilgan xozirgacha 13 yil bo‘ldi qabristonga faqat shu yerda yashovchi hamda boshqa qishloqlardan vasiyat bo‘yicha mayitlar dafin etiladi

58	**Arziqtepa** qabristoni	Arziktepa MFY	Arziqtepa qabristoni nomi qishloq nomidan kelib chiqqan bo‘lib, qaristonga mahalliy qishloq aholisi dafn etilgani sababli shu nom bilan ataladi. Arziqtepa nomining ma’nosi esa “qattiq tepalik ” degan ma’noni bildiradi.
59	**Orziqulbuva** qabristoni	Kattaturk MFY	Tasavvuf ta’limotining Yassaviy oqimiga mansub “Turkon “ suluki namoyondalaridan bo‘lmish Shayx Orziqul Bobo Valuxollox binni O‘rozqul Bobo binni Avliyoqul Do‘sti Xudo taxminan xijriy yil 1160yillar, milodning 1747- yilida Oqjar hududining Katta turk jamoasida tavallud topganlar Xo‘qand vohasi Farg‘ona vodiysining ma’naviy markazi hisoblangan. Shu tufayli Xo‘qand shahri qadimgi manbalarda “Ho‘qandi Dorulvali” tarzida qalamga olinadi. Oqjar hududi ham mazkur Dorulvalining muqaddas go‘shalaridan bo‘lib kelgan. Orziqul bobo savodlarini shu yerdagi ota-bobolari shayxlik qilib kelgan katta xonaqoda olganlar. Balog‘at yoshiga yetganlaridan so‘ng Buxoroi sharifga borib, “G‘aribiya “ madrasasida tahsil olganlar. Tahsil paytida tafsir,hadis,fiqx,mantiq ilmlari, arab va fors tillarini puxta yegalladilar. Yetti yildan so‘ng o‘z qishloqlariga qaytib, otalari shayx O‘rozqul Boboga yordamchi tariqasida xalifalik vazifasini bajardilar. Fiqx(shariat qonunlari) ilmini mukammal o‘rganganlari tufayli voha ulamolari va xalq ichida yirik alloma sifatida shuhrat qozondilar. Shariatning turli sohalari bo‘yicha yeng chigal masalalarni ham hal yetishga qodir yedilar. Otalari vafot yetgach, suluk ahli Orzuqul boboni shayxlikka sayladilar. Amir al-Muslimin Sayid Muhammad Umarxon ham shayx bilan do‘st tutinib, axyon-axyonda ziyorat qilqib turganlar.2001-2004- yillarda Orziqul Bobo maqbarasi qurilishi Katta turk qishlog‘I farzandi Qodirali xoji o‘g‘li tomonidan amalga oshirildi. Qurilishda Dang’ara lik usta Sharifjonlar ishtirok yetdilar, shuningdek qishloq ahli baholi qudrat qatnashdilar. Bugungi kunda Oqjar hududidagi diqqatga sazovar tarixiy- memoriy obida hisoblanadi.
60	**Temirchibuva** qabristoni	Qiyali qo‘rg‘oncha MFY	Temirchi buva qabristoni barpo bo‘lishidan oldin atrofida temirchilar oilasi yashab o‘tgan va vafot etganlaridan so‘ng o‘sha yerga birinchilardan bo‘lib dafin etilgan so‘ngra odamlar shu yerni temirchi oilasi nomiga atab Temirchi buva qabristoni nomi bilan atay boshlagan.

61	**Guliston** qabristoni	Shodlik MFY	Ushbu maqbara XVIIasrga taaluqli bo‘lib Bu maqbaraga Sayyid Jalolxon to‘ra o‘g‘li Sayyid A’zamxon to‘ra dafn etilgan. Rivoyatlarga ko‘ra, u xayaonlar tilini bilgan, o‘z davrida bu xududga yov bostirib kirganda tepalikka chiqib, ot bo‘lib kishnab, otlarga buyruq bergan. Shunda dushman otlari ustidagi askarlarni uloqtirib ortga qarab qocha boshlashgan. Shu sabab Sayyid A’zamxon to‘rani “Kishnog‘ich ota” deb atay boshlashgan. Vafotidan so‘ng bu kishi dafn eitlgan joyga maqbara qurishgan. Maqbaraning g‘arb tomonida guliston qabristoni mavjud bo‘lib qabristonga guliston qishlig‘I fuqorolari dafn etilgani shu bois qabriston guliston nomi bilan yuritiladi

Xalq deputatlari Dang‘ara tuman Kengashining
2024-yil 1-fevraldagi
VI-86-21-11-155-K/24-son qaroriga
2-ilova

Dang’ara tuman hududidagi davlat reestriga kiritilayotgan ziyoratgohlar nomlari

MA’LUMOT

t/r	Nomlanishi	Manzili	Tarixiy-ilmiy asosi
1	**Xo‘ja Azizbuva** ziyoratgohi	Qiyali MFY	Aytishlaricha XIV-XV asrlar davrida Xo‘ja aziz buva Amir Temur davrida, taxminan hozirgi Dang‘ara tumani Qum qiyali MFY hududida yashab o‘tgan uni xalq Hizirga tenglashtirgan, Rivoyatlarga ko‘ra Amir temur bu inson haqida eshitib agar shu inson haqiqatdan Hizir bo‘lsa uning oldiga kelganimda, U qo‘lida issiq holvalar bilan kutib oladi degan ekan. Shunda haqiqatdan xam Sohibqironning jangdan qaytishida Xo‘ja aziz buva qo‘lida yangi pishirilgan holva bilan hukmdorni kutib olgan ekan. Xo‘ja aziz buva vafotidan so‘ng uning qabri ustiga maqbara qurilgan va mustaqillik davrila qayta tiklangan, hozirgi kunda ziyoratgohga aylantirilgan.
2	**Kishnovichota** ziyoratgohi	SHodlik MFY	Ushbu maqbara XVII asrga taalluqli bo‘lib, bu maqbaraga Sayyid Jalolxon to‘ra o‘g‘li Sayyid A’zamxon to‘ra dafn etilgan. Rivoyatlarga ko‘ra, u xayvonlar tilini bilgan, o‘z davrida bu hududga yov bostirib kirganda tepalikka chiqib, ot bo‘lib kishnab, otlarga buyruq bergan. SHunda dushman otlari ustidagi askarlarni uloqtirib ortga qarab qocha boshlashgan. Shu sabab Sayyid A’zamxon to‘rani “Kishnovich ota” deb atay boshlashgan. Vafotidan so‘ng bu kishi dafn etilgan joyga maqbara qurishgan. Ushbu maqbara Xudoyorxon hukmronligining uchinchi davrida ta’mirlangan. SHuningdek, 2012 yilda ham qayta ta’mirlangan.

3	**Chomochbobo** ziyoratgohi	Qashqar MFY	Allohning nazari tushgan oltin vodiy zamini tilsimotlaridan yana biri Chomoch Bobo, mahalliy talaffuz bilan aytganda, Chomoch buva mozorlaridir. Dang‘ara tumanining Qashqar mahalla fuqarolar yig‘inida joylashgan, ushbu ma’naviy maskan o‘ziga xos bir ma’no, sirlarga to‘la tilsimot sifatida ko‘pchilikning diqqat e’tiborini o‘ziga jalb etib keladi. Sodda me’moriy echim asosida, ortiqcha bezak va hashamatlarsiz qurilgan bu joyning sohibi «do‘sti Xudo» maqomiga erishgan, bu dunyo lazzatlaridan voz kechgan tabarruk bir zot ekanligidan darak beradi. Mozor nomining o‘ziyoq bir jumboq bo‘lib, uni echish uchun vatan tarixi, so‘fiylik ta’limoti va boshqa fanlarni o‘rganishga to‘g‘ri keladi. Mozor mutasaddilari va shayxlari ravza sohibi bo‘lmish Chomochbiy yoxud SHahmasadbiyni Zahiriddin Muhammad Boburning farzandi deb ishonadilar va bu fikrni boshqalarga ham uqtirishga harakat qiladilar.
4	**Xobbuva** ziyoratgohi	Istiqlol MFY	Ushbu ziyoratgoh XIX asrda vujudga kelgan bo‘lib, hozirgi kunda Dang‘ara tumani Istiqlol MFY hududida joylashgan. Xobbuvaning asl ismi Habibullo ota bo‘lgan. U hazrat Alining to‘rtinchi avlodi, aytishlaricha avliyo bo‘lgan. Xudoyorxon davrida maqbara bunyod etilgan. Qadamjoning kirish eshigi va me’moriy yodgorligiga kirish yo‘laklari asfalt bilan chiroyli qilib ta’mirlangan. Ziyoratgohda avtoturargoh mavjud bo‘lib, obekt xomiylar tomonidan ta’mirlanib, devor bilan o‘ralgan va ziyoratchilar uchun qulay sharoitlar yaratilgan.
5	**Yermachitbuva** ziyoratgohi	SHodlik MFY	Manbalarga ko‘ra temuriyzodalarni murosaga keltirish maqsadida hijriy 894 (milodiy 1489-yilda) tasavvuf oqimining yirik namoyondasi Xo‘jaa Ahror Vali hazratlari Marg‘ilonga tashrif buyuradi. Ortga qaytishida Qo‘qon shahridan chiqishda ushbu qishloq ahli uni tanib qolib tavof qilishadi. Qishloq eri yaxshi bo‘lsada suv taqchil bo‘lib, Xo‘ja Ahror qo‘lidagi asosini erga suqadi va shu erdan buloq chiqib atrofga tarqaladi, aholi uni Xo‘ja Ahror chashmasi, deb atay boshlaydi, keyinchalik u erdagi buloq ko‘zi berkilib ketadi. 17-asrda Ahmad Yassaviyning avlodi Sayyid Azlarxon To‘ra bu erni obod qiladi. Qo‘qon xoni shu erga masjid qurdirib, 50 tanob erni masjidga vaqf qilib beradi. Shundan so‘ng, u erlar qishloq nomi o‘rniga Er masjid deb, Masjid esa Azlarxon to‘ra xotirasi bilan (Ermasjid buva) atala boshlanadi.

6	**G‘oyib Eran** ziyoratgohi	Tangriqul MFY	G‘oyib Eran boboning haqiqiy ismi Xoja Ruxiddin Eran binni Xoja Ruxiddin Ali shayxdir. “Eran” atamasining lug‘aviy ma’nosi er kishi, mard kishi degan bo‘lib, “YAssaviy” sulukida tasavvufning barcha bosqichlariga ko‘tarilib, valiylik darajasiga etgan shayxlar Eran deb atalgan. Xoja Ruxiddin taxminan XVII asrlarda yashab o‘tgan. SHu kungacha ayrim varaqalari etib kelgan farg‘onalik valiylar hayotiga bag‘ishlangan tazkirada keltirilishicha Xoja Ruxiddin Eranni tushida Xoja Axmad YAssaviy: “ey-farzand, payg‘ambar (s.a.v) yoshlaridan 1,5 barobar yashading. Endi kelib bizning xizmatimizda bo‘lgin”, -deb Arshi a’loga chorlagan. Xoja Ruxiddin tahorat olib, 2 rakat namoz o‘qib, yaqinlari bilan vasiyatlashib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi. SHundan so‘ng depara ahli uning ta’ziyasini o‘tkazib, xonaqohlarini dahmaga aylantirganlar.